

TEXNOLOGIYA FANINING MAHSULOT TAYYORLASHNING ENG ZAMONAVIY VA SAMARALI USULLARINI YARATISHDAGI AHAMIYATI

Shaymanova Sojida Abdullayevna

Angor tumani 14-maktab texnologiya fani o'qituvchisi

Annotasiya: Maqolada mahsulot tayyorlashning eng zamonaviy va samarali usullarini yaratishda texnologiya fanining ahamiyati haqidagi ma'lumotlar batafsil yoritilgan.

Kalit so'z: Dizayn, mahsulot, ahamiyati, yaratish, rivojlantirish, takomillashtirish, muammo, shart-sharoit, texnologiya, echim, tarbiya, usul.

Kirish. Texnologiyaning fan sifatidagi roli va vazifasi mahsulot tayyorlashning eng zamonaviy va samarali usullarini yaratishdan iborat. Fan va texnika rivojlanib borgan sari texnologiya ham yangilanib va o'zgartirib turiladi. Har qaysi sohada texnologiyani ishlab chiqish uchun texnologik hujjatlarni ishlab chiqish, tipaviy texnologik jarayonlar, standartlashtirilgan jihozlar va uskunalardan foydalanishning yagona tartibi bo'lishi lozim.

Texnologiya (grekcha: „*techno*“ - hunar, usta va „logos“- fan, ta'lim)-ilmiy-praktika asosida xom-ashyoni tayyor mahsulotga aylantirishning usullari.

Texnologiya (yunoncha *techne* -san'at, mohirlik, o'quv)-sanoat,qurilish, transport, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalarda mahsulotlar olish, ularga ishlov berish va ularni qayta ishlash usullari tartibga solingan tizim; shu usullarni ishlab chiqish, joriy qilish va takomillashtirish bilan shug'ullanadigan fan.

Asosiy qism. Har bir sohaning o'ziga xos texnologiyasi bo'ladi: kon ishlari texnologiyasi, mashinasozlik texnologiyasi, qurilish texnologiyasi, qishloq xo'jaligi va boshqalar. Masalan, qurilish ishlari texnologiyasi bir qancha operatsiyalar yig'indisidan tashkil topgan: yer ishlari (yerni tekislash, kotlovan va transheyalar qazish); poydevor yotqizish; devor tiklash (g'isht terish, panel o'rnatish); antiseysmik belbog'lar va temirbeton ustunlar ishlash; qavatlararo va tom yopmalarini montaj qilish, tom yopish;

elektr, gaz va suv tarmoqlarini o‘tkazish; pardozi ishlari va h.k. Har qaysi operatsiyani o‘ziga xos bajarish usullari bor. Maxsulotni, pardozilashda avval devor tekislanadi (mayaklar o‘rnatiladi), qora suvoq, keyin toza suvoq qilinadi, so‘ngra oqlanadi (bo‘yoq beriladi) yoki gulgog‘oz (oboy) yopishtiriladi.

Amalda texnologik jarayonlar qanchalik puxta ishlangan, tavsiya etilayotgan usullar chuqur tajriba va ilmiy yondashuvga asoslangan bo‘lsa, tayyorlanadigan mahsulot (avtomobil, bino yoki inshoot va h.k.) shunchalik sifatli bo‘ladi.

Texnologiya mahsulot ishlab chiqarish uchun sanoat protseslarda foydalanuvchi materialning, xom-ashyonining yoki ayrim mahsulotning bichimini, o‘lchamini, hususiyatini, kuyini o‘zgartirish shartlaridan iborat.

Natijalar va muhokamalar. Umumiy sanoat protsesning bo‘lagi bo‘lib hisoblanuvchi ishlab chiqarish, tashish, saqlamoq, nazorat qilish haqidagi ish-harakatlar ham texnologiya deb ataladi. Jamiyatning o‘zgarishiga bog‘liq ishlab chiqarishning, xizmatning, o‘qitishning, v.b. turli sohalarga innovatsiya texnologiyasi tushunchasi kirilmoqda. Hozirgi vaqtda texnologiya:

- oldingi qatordagi texnologiya;
- qoldiqsiz texnologiya;
- ishlab chiqarish va qayta ishlash texnologiyasi;
- xalqaro standartga mos texnologiya bo‘lib bo‘linadi.

Neft, gaz, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va boshqa texnologiyalar ishlab chiqarish talablariga mos ravishda ishga oshirilmoqda.

Dizayn (ing . design-loyiha, chizma, rasm)-narsalar muhitini estetik va funksional sifatlarini shakllantirish maqsadiga qaratilgan loyihalash faoliyati turlarini ifodalovchi termin. Dizayn faoliyati tarkibiga keng iste‘mol buyumlari, mashina, dastgoh, kiyim, reklama va o‘rov materiallari, ishlab chiqarish, jamoat va turar joy binolarini jihozlash, mebel va boshqalar kiradi. Dizayn XX asr boshlarida yuzaga kelib, shakllandi. 80-yillarning 2-yarmidan Dizaynning faoliyat doirasi kengaydi. Dizayn sohasidagi mutaxassislar maxsus oliy o‘quv yurtlarida tayyorlanadi. Jumladan, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutida ham interyerlar va sanoat grafikasi, libos Dizayni bo‘yicha mutaxassislar tayyorlanadi.

Xulosa. Mahsulot bu -iqtisodiy faoliyatning ashyolar va xizmatlarda mujassam etilgan natijasi. Uning moddiy-buyum shakli moddiy Mahsulot ko‘rinishiga ega. Ma’naviyat sohasida g‘oya, ixtiro va kashfiyotlar, yangi texnologiyalar, ilmiy texnologiya natijalari va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari, informatsion Mahsulotlar, adabiyot va san’at asarlari-intellektual Mahsulotlar yaratiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. F.X.Mukumova. Maxsulotlarni tayyorlash texnologiyasi. Darslik.T: “Lesson Press”MCHJ nashriyoti, 2023:400 b.
2. N.Q.Muhamadiyeva. Texnologiya ta’limida milliy hunarmandchilikning variativ komponentlarini integrativ takomillashtirish // Monografiya. © TerDU NMM nashriyoti, 2022-y. B. 111. UO‘K: 373.5.026:379.826. KBK: 74.200.M 93 ISBN: 978-9943-8897-4-3.
3. N.Q.Muhamadiyeva. Milliy hunarmandchilikning variativ komponentlarini takomillastirishning ilmiy-nazariy asoslari // Uslubiy qo‘llanma. © TerDU NMM nashriyoti, 2022y – 92 bet.
4. N.Q.Muhamadiyeva. Texnologiya ta’limida milliy hunarmandchilikning variativ komponentlarini takomillashtirish texnologiyalari // Uslubiy qo‘llanma. © TerDU NMM nashriyoti, 2022y – 92 bet.